

GERMENEVTIK TAFAKKUR SHAKLLANISHIGA OID ILMIY IZLANISHLARNING TARIXIY TRANSFORMATSIYASI

Botirova Sevara Mamurovna

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası mudiri,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21129916>

Annotatsiya: Ushbu maqolada germeneytik tafakkurning ijtimoiy-falsafiy tabiati, uning shakllanish bosqichlari va epistemologik tizimdan ontologik hamda kommunikativ diskursga o'tish transformatsiyasi tahlil etilgan. Tarixiy davrlar kesimida tushunish fenomenining ekzistensial mohiyati, subyektning dunyoga tashlanganlik holati va intersub'yektiv muloqot qonuniyatlari falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Germaneytika, ijtimoiy falsafa, transformatsiya, dunyoga tashlanganlik, kommunikativ ratsionallik, intersub'yektivlik, ontologik burilish, subyekt.

Аннотация: В статье анализируются социально-философская природа герменевтического мышления, этапы его формирования и трансформация от эпистемологической системы к онтологическому и коммуникативному дискурсу. В разрезе исторических периодов философски исследуются экзистенциальная сущность феномена понимания, состояние заброшенности субъекта в мир и закономерности интерсубъективного диалога.

Ключевые слова: Герменевтика, социальная философия, трансформация, заброшенность в мир, коммуникативная рациональность, интерсубъективность, онтологический поворот, субъект.

Abstract: The article analyzes the socio-philosophical nature of hermeneutic thinking, the stages of its formation and transformation from an epistemological system to ontological and communicative discourse. In the context of historical periods, the existential essence of the phenomenon of understanding, the state of the subject's thrownness into the world and the regularities of intersubjective dialogue are philosophically investigated.

Keywords: Hermeneutics, social philosophy, transformation, thrownness into the world, communicative rationality, intersubjectivity, ontological turn, subject.

Kirish. Ijtimoiy reallikni anglash va subyektning borliqdagi o'rnini determinatsiya qilish masalasi ijtimoiy falsafaning permanent kategorial muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Insoniyatning madaniy-tarixiy tajribasi va ramziy tizimlar strukturasi shunchaki statik obyekt emas, balki dinamik interpretatsiya jarayonidir. Ushbu jarayonni tadqiq etish ehtiyoji germeneytik tafakkurning klassik matn tahlili doirasidan chiqib, ijtimoiy borliqni anglashning universal metodologiyasiga aylanishini taqozo etdi. Germaneytik izlanishlarning xronologik va mantiqiy evolutsiyasini o'rganish hozirgi ijtimoiy konfuziyalar va kognitiv transformatsiyalar davrida alohida dolzarblik kasb etadi.

Asosiy qism. Germaneytik tafakkurning ijtimoiy-falsafiy tabiati subyektning lingvistik va kognitiv borlig'i bilan uzviy bog'liqdir. Til shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlar arxetipidir. S.A. Bochkaryovning fikricha, “Germaneytika — bu inson ruhining ichki qonuniyatlarini, til va ong o'rtasidagi ijtimoiy bog'liqlikni ochib beruvchi metodologik yo'nalishdir” [1, s. 465]. Ushbu kategorial yondashuv germeneytikani



sof gnoseologik cheklanganlikdan qutqarib, uni ijtimoiy borliq ontologiyasi bilan bog'laydi. Til va ong sotsium sferasida o'zaro sintezlashadi.

Xronologik zanjirning keyingi bosqichida germeneytik tafakkurning gnoseologik apparatdan fundamental ontologik darajaga ko'tarilishini kuzatamiz. Bu burilish Martin Xaydegger nomi bilan bog'liq. U tushunish fenomenini bilishning subyekt-obyekt munosabatidagi usuli sifatida emas, balki inson borlig'ining determinanti sifatida baholaydi. U shunday yozadi: “Tushunish — bu mavjudlikning o'zi, chunki inson o'z mavjudligini faqat dunyoga tashlanganlik holatida anglaydi” [2, S. 142]. Inson subyektlik maqomidan ayrildi. U borliq ichiga otilgan va o'z mavjudligini faqat tushunish orqali legittimsizlashtirishdan asraydi. Bu — ekzistensial interpretatsiyadir.

Xaydegger an'anasini davom ettirgan holda, Moris Merlo-Ponti germeneytik talqinni umumiy fenomenologik ratsionallik bilan sintez qiladi. Biroq u tushunishning intellektual va diskursiv chegaralarini kengaytirib, unga tana va sensor idrok o'lchovini kiritadi. M. Merlo-Ponti esa germeneytik tafakkurni fenomenologik tajriba bilan bog'lab, “tushunish bu tana orqali mavjudlikni sezishdir” deydi [3, p. 203]. Demak, ijtimoiy makonda subyekt borliqni faqat mavhum g'oyalar orqali emas, balki o'zining jismoniy-ijtimoiy borlig'i, sensor reaksiyalari va subyektiv kechinmalari prizmasidan o'tkazib tushunadi.

Tana — ijtimoiy borliqning eng birinchi va birlamchi vositasidir. Jamiyatdagi barcha ramziy ma'nolar, hokimiyat munosabatlari va madaniy marosimlar eng avvalo inson tanasi darajasida muhrlanadi va his etiladi. Merlo-Ponti falsafasining ijtimoiy o'lchami shundaki, subyektning dunyodagi borligi (être-au-monde) sof kognitiv akt emas, balki jismoniy-amaliy tajribadir. Biz boshqa insonlarni ularning matnlari yoki nutqiy bayonotlaridan oldin, ularning ijtimoiy makondagi tana harakatlari, imo-ishoralari va ekspressiv borligi orqali germeneytik idrok etamiz. Bu esa ijtimoiy falsafaga tushunishning yangi — intersubyektiv va vizual-sensor o'lchovini olib kirdi.

Bu ontologik chiziq Xans-Georg Gadamer falsafasida o'zining oliy nuqtasiga yetdi. Gadamer tarixiy an'ana va ufqlar simbiozini birinchi planga olib chiqdi. Gadamer ta'kidlaganidek, “tushunish — bu bilimning metodik shakli emas, balki mavjudlikning o'zi ochuvchi voqelik” [4, s. 704]. Tarixiy ong va madaniy kontekst subyektini qamrab oladi. Hech bir tadqiqotchi o'zining tarixiy ufqidan tashqarida turib haqiqatni topa olmaydi. Haqiqat metodga bo'ysunmaydi.

Gadamer fanning quruq va mexanik metodologizmiga qarshi chiqib, tushunishni an'ana (Tradition) bilan muloqot sifatida asosladi. An'ana — bu o'tmishning o'lik qoldiqlari emas, balki hozirgi zamon subyektining ongini shakllantiruvchi tirik ijtimoiy quvvatdir. Biz har doim ma'lum bir tarixiy an'ananing ichida turib fikrlaymiz. Shuning uchun interpretatsiya jarayoni — bu o'tmish ufqi bilan hozirgi zamon ufqining o'zaro to'qnashishi va uyg'unlashuvidir (Horizontverschmelzung). Bu jarayonda subyekt nafaqat matnni yoki o'tmishni tushunadi, balki o'zining ijtimoiy mohiyatini, madaniy o'zligini va tarixiy chegaralarini yangidan kashf etadi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, germeneytik tafakkurning ijtimoiy-falsafiy evolutsiyasi postmetafizik va kommunikativ bosqichga qadam qo'yadi. Yurgen Habermas germeneytik tushunishni sotsiumdagi instrumental hukmronlik va mafkuraviy manipulyatsiyalardan ozod qilish vositasi sifatida qayta shakllantirdi. U yozadi: “Tushunish kommunikativ ratsionallikka asoslanadi, haqiqat esa faqat erkin muloqotda paydo bo'ladi” [5, p. 101]. Bu — kognitiv blokada usulidir. Ijtimoiy institutlar bosimidan xoli bo'lgan ideal

nutqiy vaziyat (ideale Sprechsituation) g’oyasi hermenevtikani ijtimoiy-tanqidiy amaliyot darajasiga ko’tardi.

Habermas yondashuvi hermenevtikani ijtimoiy reallikning chuqur transformatsiyasiga yo’naltiradi. Agar Gadamer an’anaga bo’ysunish va u bilan murosa qilishni yoqlagan bo’lsa, Habermas an’ana ortiga yashiringan zo’ravonlik, hokimiyat va tengsizlik mexanizmlarini fosh etishga chaqiradi. Jamiyatdagi ko’plab tushunish holatlari aslida tizimli ravishda buzilgan kommunikatsiya (systematically distorted communication) natijasidir. Mafkura va siyosiy propaganda tilni manipulyatsiya qilish orqali yolg’on sotsial konsensus yaratadi. Bunday sharoitda hermenevtik tafakkurning vazifasi — til va muloqotni tizimli repressiyalardan ozod qilish, jamiyatda erkin, teng huquqli va ratsional diskurs muhitini ta’minlashdan iboratdir.

Xulosa. Hermenevtik tafakkurning tarixiy transformatsiyasi sotsial-falsafiy paradigmalarning almashinuv qonuniyatlarini aks ettiradi. U matnlarni filologik ekspertiza qilishdan boshlanib, inson borlig’ining ontologik asosi va ijtimoiy kommunikatsiya mexanizmiga aylanish pallasini bosib o’tdi. Ushbu metodologik transformatsiyani milliy tadqiqotlar va ta’lim tizimiga integratsiya qilish bugungi manipulyativ axborot asrida sotsium a’zolarida tizimli tanqidiy fikrlashni shakllantirishning eng samarali strategik vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бочкарев С.А. Герменевтика как потенциальная наука об угловом законе. — Москва: РУДН, 2018. — С. 465.
2. Heidegger, M. Sein und Zeit. — Tübingen: Niemeyer, 1927. —S. 142.
3. Merleau-Ponty, M. Phénoménologie de la perception. — Paris: Gallimard, 1945. p. 203
4. Гадамер, Г.-Г. Истина и метод. — Москва: Прогресс, 1988. — 704 с.
5. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. — Boston: Beacon Press, 1984. — Vol. 1. p. 101.